BADIIY XRONOTOPDA PSIXOANALITIK TALQIN TENDENSIYALARI

Pardayev To‘lqin
Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiyaю Idrok etilayotgan har qanday badiiy tafakkurda insonning hayotga bo‘lgan birinchi o‘z ehtiyoji, manfaati turadi. Chunki yozuvchi qanday shaxsni, muhitni, hayotni, jamiyatni, odamlarning fe’l-atvorini xayoliy-fantastik semalardan emas, o‘zi yaratgan badiiy polotno ichidan qidiradi. Unga mubolag‘a qilganda zarbob to‘n kiydiradi.

Key words. Ramz va metafora, PEYZAJ, xronotop, yozuvchi g‘oya, mavzu, fabula, syujet, pafos, kompozisiya.

Аннотация. В любой воспринимаемой художественной мысли первая потребность и интерес человека в жизни — его собственный. Ибо писатель ищет, каков человек, среда, жизнь, общество, характер людей, не в воображаемых и фантастических картинах, а в созданном им художественном полотне. Преувеличивая, он становится тираном.

Ключевые слова. Символ и метафора, ПЕЙЗАЖ, хронотоп, авторская идея, тема, фабула, сюжет, пафос, композиция.

Annotation. In any perceived artistic thought, a person's primary need and interest in life is their own. For the writer seeks to understand the nature of man, his environment, life, society, and human character not in imaginary and fantastical images, but in the artistic canvas he creates. By exaggerating, he becomes a tyrant.

Keywords: Symbol and metaphor, LANDSCAPE, chronotope, author's idea, theme, plot, storyline, pathos, composition.

KIRISH

Yozuvchi o‘z-o‘zi bilan ochiq-oydin jangga kirishadi. O‘z-o‘zini xatolarini ham talqin qilib borarkan, inson atalmish sirli jumboqning tashqi va ichki olamini teran ifodalashga katta imkon topadi. Yevropa hikoyachiligi, qissachiligi va romanchiligidan o‘tib, o‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotida katta modifikatsiyaning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan badiiy asarlarda inson qalbi va uning umidlari birinchi planga ko‘tariladi. O‘zbek adabiyotida Jeyms Joys, Jorj Oruell, Jon Steynbek asarlarida badiiy xronotopning ajralmas halqalarini ko‘ramiz. Mazkur asarlarda sargo‘zashtlilik va fantastik talqin ifoda tig‘izligi qabarib ko‘rinsa, o‘zbek adabiyotida ham undan kam bo‘lmagan kinoyaviy-parodik usulning ham, ruhiy tahlilning ham qavatma-qavat yurishlarini his etamiz.

Aslida badiiy xronotopning tur va shakllari inson psixikasining bir tomonini emas, uni yuzaga keltirgan muhit va sharoitning ham o‘rni beqiyosligini ko‘ramiz.

ISSN 3030-3907

Jon Steynbekning “Sichqonlar va odamlar” qissasida fermerlik, umuman dehqonchilik orasidan kun ko‘rish ilinjida hayot haqiqatini anglab yetishga jazm etgan qator obrazlar tizimiga ro‘baro‘ kelamiz. O‘zbek adabiyotida O‘.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, L.Bo‘rixon, I.Sulton qissalarida – mehnatkash va jafokash o‘zbek xalqining tuganmas mentin irodasi, hayotdagi o‘rni va roli, yashash konsepsiyasining naqadar olijanob fazilatlariga yuzma-yuz kelamiz. Qirg‘iz adabiyotida Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi ham ana shu mezonlarning konseptual tagma’noga ega mahsuli ekaniga shohid bo‘lamiz.

Prof. H.Umurov: “...Agar psixologizmning (dinamik, analitik) prinsiplarini badiiy adabiyotda shaxs psixologiyasini ochish yo‘llari deb tushunsak (bu yo‘llar psixik narsaning ob’yektiv va sub’yektiv yashash formalaridir), yozuvchi, albatta, xarakter va uning psixikasini yaratish jarayonida bu prinsiplar chegarasidan chiqib keta olmaydi. Bu o‘z navbatida psixologizm prinsiplarining tarixiyligini va ob’yektivligini isbot etadi. Psixologizmning dinamik va analitik prinsiplari garchi bir-biriga zid qo‘yish ham noo‘rindir. Bu prinsiplar ba’zi romanlarda uyg‘unlashgan, qo‘shoqlashgan holda ko‘zga tashlanadi. Bunday asarlarda qahramonlarning ruhiy dunyosi ularning xatti-harakatlari, qiyofalari orqali yechilishi bilan birga, ayni paytda, shu qahramonlarning fikr va hissiyotlari dialektikasi oqimi va rivoji ham beriladi”.[12] Binobarin, yozuvchi g‘oya, mavzu, fabula, syujet, pafos, kompozisiya va umuman xarakterni ochib berish uchun badiiy asarga nimaiki bor jiddiy o‘rganib ish tutmas ekan, badiiy xronotopning ham qoyilmaqom tarzda inkishof qilinishini ta’minlay olmaydi. Dinamik, anilitik prinsiplariga diqqat qilinsa, yozuvchi voqelar ketma-ketligida yoki biror vaziyatning ichida monodialogik mezonlar negizida ham qayta kashf etishning uddasidan chiqishi mumkin.

Ramz va metafora birligida tabiat va inson munosabatining uyg‘unligi. Ingliz yozuvchisi Jon Steynbekning “Sichqonlar va odamlar” qissasida psixolgzimning badiiy xronotopga ta’siri, shakllariga e’tibor berib ko‘ramiz. Tasavvur qilaylik, ingliz, umuman, Yevropa badiiy adabiyotida Jon Steynbek singari o‘nlab romannavislar bo‘lgan. Bu yozuvchilarning badiiy tafakkur olamiga teran kirib borgan sari voqelikning A va B nuqtalari oralig‘ida syujetning dinamik prinsiplarini kashf etasan kishi. Chunki ushbu asarlarda voqelik o‘z-o‘zidan sodir bo‘lgandek tuyulsa-da, azaldan inson ruhiyatining puchmoqlarigacha kirib bora olgan qahramonlar tabiatini jiddiy o‘zlashtirgan, o‘rgangan faylasuf-yozuvchi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Jon Steynbek kim? Uning ramziy-metaforik talqinlarida ham, tanqidiy realistik ifodasida ham INSON obrazi bilan yuzma-yuz kelamiz-ku? Ana shu savollarni dissertatsiyamizning ushbu faslida qayta inkishof qilib

[12] Umurov H. Risolalar. –T: “Fan”. 2007. –B.31-32.

ISSN 3030-3907

ko‘ramiz. “Realizm erishgan eng muhim yutuqlardan biri psixologik tahlilning teranligidir. Bizga ma’lumki, bir paytlar sentimentalchilar “yurak hayoti”ga e’tiborlarini qaratgan edi, romantiklar esa insonning ichki dunyosiga jiddiy qiziqishlarini namoyon etishdi. Garchi romantiklar o‘z qahramonlarini kuchli ehtiros sohiblari sifatida gavdalantirgan bo‘lsalar-da, ular insonning ichki dunyosini tahlil qilish va uning ehtiroslarini tushuntirishdan voz kechishdi, inson qalbi - aql-idrok bilan yetib bo‘lmaydigan tubsizlik, deb hisoblashdi. Realistlar esa, inson qalbi sir-sinoatlari pardasini yechdilar. Ular yurak qa’rida sir tutilgan sinoatlargacha dadil kirib bordilar va bu yerda aniq tahlilni qo‘lladilar. Boz ustiga realistlar asarlarida insoniy ehtiroslar o‘zining ijtimoiy talqinini, sharhini topdi”[13]. Haqiqatdan ham, realizmning hali ochilmagan qo‘riq ekanligini o‘zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayevlar katta nasriy asarlari timsolida ko‘rsatib bera oldi. Reallik har qanday mavhumlikka qarab singib ketmasin, alaloqibatda uning mohiyatida – inson haqiqati turadi. Inson haqiqati uning xatti-harakatlari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi.

XX adabiyotida Pulitser va Nobel mukofotlari sovirindori Jon Steynbek ijtimoiy va insoniy muammolarni o‘ta katta mahorat bilan teran idrok tigan adib sifatida dunyoga tanilgan. Uning modern va postmodern olamdagi badiiy kashfiyotlari hali-hanuz o‘zbek o‘quvchilarini ham o‘ziga maftun etib kelishda davom etmoqda. Yozuvchining hayot haqiqati shundan iboratki, inglizzabon yozuvchilar orasida – g‘oyaviy-badiiy talqinida qishloq va shahar hayoti ustalik bilan chizib beriladi. E.Xeminguey va boshqa adiblar kabi tabiat va jamiyat – inson uchligini ustalik bilan ochib beradi. “Sichqonlar va odamlar” ramziy ma’no kashf etarkan, XX asr Amerika, Yevropa xalqlari yozuvchilari bosib o‘tgan xilma-xil agressiv g‘oyalar, manfaatlar to‘qnashgan zamin odamlarini psixoanlitik talqinda yuzaga chiqarishning izidan boradi. “Sichqonlar va odamlar” qissasida arxetip Jorj Milton va Lenne Smollning bir-biriga bo‘lgan do‘stona tuyg‘ularini shu qadar dialoglashtiradiki, hikoyachi o‘quvchi qarshisiga katta umuminsoniy savollar bilan yuzlanishda davom etadi.

Qissada tabiat xronotopi. XX asrdagi kabi dunyo tamadduni hech qachon ro‘y bergan emas. Birgina asrning o‘zida ikkita jahon urushi dunyoning turli burchaklarida iqlim muvozanati bilan ruh muvozanatini izdan chiqarib yubordi. Ayniqsa, tabiiy ofatlarning ketma-ket sodir bo‘lishi, odamlarning bir-birlariga ishonchsizlik kayfiyatini paydo qildi. Tabiat ham va undagi tirik mavjudotdagi mutatsiya, turlar, zotlarning xilma-xillashuvi, ekin maydonlarining parokanda ahvolga kelib qolishini taqozo etdi.

[13] Elova U. XIX asr ingliz adabiyotida tanqidiy realizm prozasi va poeziyasining shakllanish omillari//Xorijiy filologiya №1, 2020 yil.

ISSN 3030-3907

“PEYZAJ (fransuzcha paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interyer) tasviri. An’anaga ko‘ra, peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasinin tasviri ham peyzaj., holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir”[14]. Inglizzabon adiblar asarlarida – tabiat tasviri orqali makon va zamon muammosini murakkab fragmentlarini keng qamrovda ochib berish anchayin mahoratni talab qiladi. Mahorat – ruhiyatga, inson maqsadlarini namoyon etishga qaratiladi. Amerika va Yevropada istiqomat qiluvchi ingliz yozuvchilari juda ko‘p asarlarini taibat va inson konsepsiyasini aniqlashga, ularning ilk ildizlari, yashash sharoiti, maqsadlari fonida keng turda istifoda qilishga diqqatlarini qaratadilar. Ya’ni voqelikning umumiy formulasi – sargo‘zashtlilik. U mavhum bo‘ladimi, ramziy ishoralar negizida yuzaga chiqriladimi, barchasida sayru sayohat negizida inson qalbiga sayr tushunchasi bilan sug‘oriladi. Buni hech bir adabiyotshunos inkor qilolmaydi. Negaki, har qanday kuchli shaxsning ojiz va har qanday ojiz shaxsning kuchli tomonlari bo‘lishi tabiiydir.

Rus munaqqidi V.G.Belinskiyning “Narsalarning qadri – bir-biriga qiyos qilinganda yaxshi bilinadi. Agar ikki yozuvchi bir turda ijod qilib, bir-biriga qandaydir o‘xshashligi bor ekan, binobarin ularni parallel joylarga qo‘yib bir-biriga qiyosan baholashdan boshqa iloj yo‘q; eng odil tarozi shu”[15], deganida mutlaqo haq gapni aytgan. Chunki qiyoslash badiiy matnning o‘ziga xos va mushtarak, xarakterlararo mantiqiy bog‘lamni yuzaga chiqishiga kalit vazifasini o‘taydi. Demak, Jon Steynbekning “Sichqonlar va odamlar” qissasida ikki do‘stning ana shunday dolg‘ali hayot sinovlari o‘z ifodasini topdi:

“Salinas daryosi Soledaddan bir necha mil janubda tepalik yonbag‘irlarini yalagan holda sokin va chuqur oqadi. Suvi yashiltob bo‘lib, iliqqina. Chunki daryo bu tor qo‘ltiqqacha quyosh qizdirib turgan sariq qumlar bag‘ridan oqib keladi. Qirg‘oqning bir tarafi tepalikdan iborat bo‘lib, uning zarhal tizmalari Gabilan qoyalariga tutashib ketgan, ikkinchisi – tekislik tarafida esa, har bahor tagini yosh maysalar qoplaydigan, pastki barglarida qishning asari ko‘rinib turadigan tollar, butalari bir-biriga chirmashib ketgan, shoxlari suvga egilib turadigan sikomorlar[16] tarvaqaylab o‘sib yotibdi. Qirg‘oqdagi bu daraxtlar tagida barglar qalin gilam kabi

[14] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013. – B.220-221.
[15] Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T: “Adabiyot va san’at”. 1979. –B.68.

[16] Sikomor – tutsimonlar oilasiga mansub daraxt. Vatani – Misr. Oq zarang, chinor ham deyishadi.

ISSN 3030-3907

to‘shalgan, hatto kaltakesakning yugurganlari shitirlab eshitiladi. Kechqurun quyonlar o‘rmondan chiqib, qum ustiga o‘tirishadi. Nam joylarda tunda kezgan bo‘rsiqlarning, katta panjali xo‘jalik itlari va qorong‘ida suv ichgani kelgan kiyiklarning oyoq izlarini ko‘rish mumkin” [17].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umurov H. Risolalar. –T: “Fan”. 2007. –B.31-32.
2. Elova U. XIX asr ingliz adabiyotida tanqidiy realizm prozasi va poeziyasining shakllanish omillari//Xorijiy filologiya №1, 2020 yil.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013. – B.220-22.
4. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T: “Adabiyot va san’at”. 1979. –B.68.
5. Sikomor – tutsimonlar oilasiga mansub daraxt. Vatani – Misr. Oq zarang, chinor ham deyishadi.
6. Jon Steynbek. Sichqonlar va odamlar. –T: “Muharrir”. 2023. –B.

[17] Jon Steynbek. Sichqonlar va odamlar. –T: “Muharrir”. 2023. –B.

ISSN 3030-3907